

**TERAPIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

Tadjibayeva Zulayho Radjapbayevna

Ellikqal' Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada terapiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'рни va ahamiyati, zamonaviy asbob-uskunalardan unumli foydalangan holda o'sib kelayotgan bo'lajak kadrlarni har tamonlama yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishning usul hamda vositalari haqida so'z boradi. Jamiyatimiz taraqqiyoti bevosita innavatsion omillarga bog'liq. Bu esa o'z navbatida saviyali va sifatli ta'limni talab qiladigan jarayondir.

Sog'liqni saqlashning samaradorligini oshirish bilan birinchi navbatda malakaviy tibbiyot xodimlarini tayyorlash tizimini yangicha ko'rinishga keltirish muhimdir. Tibbiy ta'limda kadrlarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalar, muammoga yo'naltirilgan o'qitish, klinik vaziyatlar, axborot kommunikativ va kompyuter asosida o'qitish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Kalit so'z: ta'lim, tarbiya, kasb, darslik, texnologiya, visual, axborot kommunikatsiya texnologiyalri.

KIRISH

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra inson salomatligi 19% tashqi muhitga, 20% genetik omillarga, 9% sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52% turmush tarziga bog'liq. Dunyo miqyosida fan va ta'lim o'zaro muvofiq tarzda rivojlanib kelayotgani sayin turli davlatlarda ham o'qitish tizimida ham ko'pgina interfaol texnologiyalar shakllanib kelmoqda. Xususan, tibbiyot kadrlarni tayyorlash, kasbiy yutuqlari sonini kengaytirishga bo'lgan e'tibor davlat miqyosida ham e'tirof etilmoqda. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil, 18-mart kuni tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Uchrashuvda davlatimiz rahbari o'z nutqida ularni umumlashtirish, 7 ta yo'nalishni ko'rsatib o'tdi:

- 1-birlamchi tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish;
- 2-tez tibbiy yordamni rivojlantirish;
- 3-tibbiyot muassasalari sharoitini yaxshilash;
- 4-soha xodimlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash;
- 5-shifoxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash;
- 6-jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini oshirish;

7-kasalliklarining oldini olish.

Yuqoridagi yo'nalishlardan beshinchisi shifoxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash holati bilan bog'liq. Kasbiy harakatchan malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanilmoqda. Ularni o'qitishda qo'llash kasbiy va umumiy bilimlarni rivojlantirish, o'quvchining faolligini yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi.

Kollej va texnikum o'qituvchilari bugungi kunda turli pedagogic texnologiyalardan foydalanilmoqda. Eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyalardan quyidagilar:

1. Hamkorlikda o'rganish;
2. Simulyatsiya texnologiyasi;
3. Axborot texnologiyasi.

O'quvchini jamoada ishlashga va har doim bir-biriga yordam berishga tayyor bo'lishi uchun hamkorlikda o'rganish qo'llaniladi. O'quv guruhi 2-3 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'lingan holatda olib borish usulida ham ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Simulyatsiya texnologiyasi bugungi kunda o'quvchilarda zarar yetkazish xavfisiz keng sharoitlarni yaratishda yetakchi hisoblanadi. Tibbiyot ta'limida simulyatsiya amaliy ko'nikmalarni o'rgatish va baholash texnologiyasi hisoblanadi. Shu bilan birga bu usullarda asbob-uskunalar bilan ishlash, jamoada ishlash ko'nikmalari oshirilmoqda. Simulyatsiya texnologiyasining quyidagi guruhlari ajratilgan:

1. Real fantom organlar;
2. Avtomatlashtirilgan realism manekenlari;
3. Video uskunalar;
4. Haqiqiy tibbiy abob-uskunalar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan umumli foydalana olish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilimga ega bo'lishi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish, ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

O'rganilayotgan material ko'rinishi va bilim sifatini baholash uchun o'qituvchilar darslarini kompyuter taqdimotlaridan, chizmalar, jadvallar, fotosuratlar, videolar, slaydlar to'plamini o'z ichiga olgan tartibda olib borsalar dars sifatini va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuqori darajaga oshirish mumkin.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish terapiya fanini o'rganishda o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish, o'rganilayotgan fan bo'yicha ulardan chuqur va mustahkam bilim olishda, yuqori bilish faolligini ta'minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi turli pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash taklif etilmoqda. Shuning uchun har bir

fan mutaxassislari o'zlarining mutaxassislik fanlarining xususiyatlariga mos keluvchi pedagogic texnologiyalardan amaliyotda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“ONE STEPAHEAD MEDICAL EDUCATION”, ya'ni **“Tibbiy ta'limda bir qadam oldinda”** deb nomlangan yangi pedagogik texnologiyadan barcha fanlarning xususiyatlariga mos kelishi bilan dars mashg'ulotlarini noan'anaviy usul yordamida sifatli darsni tashkil etish jihatlari bilan ajralib turadi.

Tadqiqot usuli va joriy etish mexanizmiga ko'ra: **“ONE STEPAHEAD MEDICAL EDUCATION”**, ya'ni **“Tibbiy ta'limda bir qadam oldinda”** deb nomlangan yangi pedagogik texnologiyani yaratishda ekran oynasida raqamlar mavjud bo'ladi. Raqamlar ostida savollar yashiringan. Mavzuga oida savollar Microsoft Word dasturida yoziladi.

1-bosqich: Guruh o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linadilar va ekrandan raqam tanlaydilar. Raqamlar ostiga yashiringan savollar o'qituvchi tomonidan taqdim etiladi va o'ylash uchun vaqt beriladi.

2-bosqich: O'quvchilar savolning javobini qisqa vaqt davomida guruh bilan muhokama qiladilar va savolga javob beradilar.

3-bosqich: Savol-javoblar so'nggida o'qituvchi tomonidan barcha savollarning javobi umumiyashtiriladi va mavzuga oid video-roliknamoyish qilinadi.

4-bosqich: Har ikki guruh tanlash yo'li bilan vaziyatli masalalarni tanlaydilar. Yechimini topib muhokama qiladilar.

5-bosqich: Mashg'ulot so'nggida mustahkamlash uchun tayyorlangan testlarni yechadilar.

Xulosa va natijalar

Tibbiyot institutlari va texnikumlari o'quvchilarining terapiya fanidan amaliy mashg'ulot darslarini mukammal o'zlashtirishga, dars davomida o'quvchilar qobiliyatlarini to'liq namoyon eta olishlariga imkoniyat yaratadi.

Amaliy mashg'ulot olib boruvchi pedagoglar uchun qulayliklar yaratadi. Mazkur texnologiyalar hisobga olib, yuqori intellekt darajasini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ortiqov A “Fan-texnika yutuqlari va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish” Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008.
2. Gaponenko I.Y “Bilimlarni boshqarish” Eksmo 2008.
3. Panfilov A.P “Innavatsion pedagogic texnologiyalar” “Akademiya markazi”, “Kasbiy ta'lim” uyushmasi 2009 yil.
4. “Professional pedagogika” Rossiya ta'lim akademiyasi. 1997 yil.
5. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan>.